ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 4/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 4/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 4/1

ТОШКЕНТ-2026

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4/1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-4/1

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Заитов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Farfiev Baxrom
FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI……...5

2. Karimov Bobir
YANGI ÖZBEKISTON ŞAROITIDA YOŞLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRIŞNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI……16

3. Yunusov Kamaldin
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI…….24

4. Сабирова Умида, Нигматуллина Алина, Румянцева Екатерина
НЕЭТИЧНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА…….31

5. Якубов Ильдар
СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: КАК СОТРУДНИЧЕСТВО ВЛИЯЕТ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….40

6. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA INKLYUZIV TARAQQIYOTNING SOTSIOLOGIK DISKURSI…..48

7. Musurmanov Nodirbek
INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI……56

8. Alimuxamedova Nodira
GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI……65

9. Nematova Dilfuzaxon
JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI……..71

10. Qosimov Vohid
DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA’MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI…….78

11. Husenov Sirojiddin
IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAKATI BILAN UYĞUNLIGI……..88

12. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA KAFOLATLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLAŞ IMKONIYATLARI…….93

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Musurmanov Nodirbek,
Samarqand Zarmed universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.,
sotsiologiya fanlari bo‘yiça falsafa doktori (PhD)
e-mail: nodirbekmusurmanov0206@gmail.com
orcid: https://orcid.org/0009-0007-3777-3081

INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24134451

ANNOTATSIYA

Uşbu maqolada rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib örin olişdan iborat oliy maqsadimiz hayotga har tomonlama yetuk tayyorlangan yoş avlodni tarbiyalaş bilan bevosita bog‘liq ekanligi hamda yoş avlodning yuksak ma’naviyati, ijtimoiy voqelikka bölgan munsabati esa uning salohiyati, mehnatsevarlik xususiyatlarini izçil rivojlantirib borişni taqozo etadi. Inson kapitalini rivojlantirişda esa mehnatning roli beqiyos ekanligini alohida ta’kidlaş zarurdir. Inson kapitalini rivolantiriş maqolada ilmiy asoslar bilan yoritib ötilgan.

Kalit sözlar: inson kapitali,mehnat, rivojlaniş, demokratik davlatlar, yoş avlod, tarbiya, ma’naviyat, salohiyat, mehnatsevarlik, izçil rivojlaniş.

Мусурманов Нодирбек,
И.о. доцента кафедры социальных наук Самаркандского университета Zarmed,
доктор философии (PhD) по социологическим наукам
e-mail: nodirbekmusurmanov0206@gmail.com

СИНЕРГИЯ МЕЖДУ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ И СОЦИАЛЬНЫМ РАЗВИТИЕМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье утверждается, что наша высшая цель – занять достойное место среди развитых демократических стран – напрямую связана с воспитанием молодого поколения, полностью подготовленного к жизни, а высокая духовность молодого поколения, его отношение к социальной реальности требуют последовательного развития его потенциала и усердного труда. Необходимо подчеркнуть, что роль труда в развитии человеческого капитала несравнима. Развитие человеческого капитала рассматривается в статье на научных основаниях.

Ключевые слова: человеческий капитал, труд, развитие, демократические страны, молодое поколение, воспитание, духовность, потенциал, усердный труд, последовательное развитие.

Nodirbek Musurmanov,
Acting Associate Professor of the Department
of Social Sciences at Zarmed University in Samarkand,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology

e-mail: nodirbekmusurmanov0206@gmail.com

SYNERGY BETWEEN HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article argues that our highest goal of taking a worthy place among developed democratic countries is directly related to the upbringing of a young generation that is fully prepared for life, and the high spirituality of the young generation and its attitude to social reality require the consistent development of its potential and hardworking qualities. It is necessary to emphasize that the role of labor in the development of human capital is incomparable. The development of human capital is covered in the article with scientific foundations.

Keywords: human capital, labor, development, democratic countries, young generation, upbringing, spirituality, potential, hardworking, consistent development.

KIRIŞ

Rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib örin olişdan iborat oliy maqsadimiz hayotga har tomonlama yetuk tayyorlangan yoş avlodni tarbiyalaş bilan bevosita boğliqdir. Yoş avlodning yuksak ma'naviyati, ijtimoiy voqelikka bölgan munsabati esa uning salohiyati, mehnatsevarlik xususiyatlarini izçil rivojlantirib borişni taqozo etadi.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Ş.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-maydagi "Asosiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantiriş" mavzusida ötkazgan yiğilişida bildirgan fikrlari [1]; Özbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021-yillarda Özbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantiriş strategiyasini tasdiqlaş töğrisida"gi Farmonida "Mamalakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoşlik darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovçi asosiy omil inson kapitalini rivojlantiriş – Strategiyaning boş maqsadi" ekanini ta'kidlab, uşbu masalani muhim vazifa sifatida belgilab berilganligi [2]; 2023-yil 11-sentabrda "Özbekiston - 2030" strategiyasining qabul qilinişi [3]; 2022-2026-yillarga möljallangan Yangi Özbekiston taraqqiyot strategiyasi" ning "Adolatli ijtiomiy siyosat yuritiş, inson kapitalini rivojlantiriş" deb nomlangan 4-yönalişidan örin olgan 34 ta maqsad [4] Özbekistonda inson kapitalini rivojlantiriş neçoğlik muhimligini körsatadi.

Tadqiqotning maqsadi – inson kapitali va ijtimoiy rivojlaniş mutanosibligi hamda mazkur jarayonlarning rivojlaniş tendensiyalarini sotsiologik jihatdan örganiş va taklif va tavsiyalar işlab çiqiş.

Vazifalar: 1) inson kapitali haqidagi nazariyalarning mazmun – mohiyatini örganiş; 2) inson kapitali mohiyati xususidagi mutafakkirlari yondaşuvlarini özига xos jihatlarini aniqlaş; 3) ijtimoiy rivojlanişning mazmun-mohiyati, asosiy körsatkiçlari va inson kapitali bilan özaro boğliqligini aniqlaş; 4) ta'lim, soğliqni saqlaş, kasbiy malaka, innovatsion salohiyat va ijtimoiy faollikning inson kapitalini rivojlantirişdagi rolini örganiş; 5) inson kapitali rivojlanişi bilan aholi turmuş sifati, bandlik, ijtimoiy tenglik va farovonlik körsatkiçlari örtasidagi mutanosiblikni tahlil qiliş; 6) inson kapitaliga yönaltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanişga ta'sir etuvçi mexanizmlarini oçib beriş.

Asosiy gipoteza: inson kapitaliga yönaltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanişga ta'sir etuvçi mexanizmlarini oçib berişni ifoda etib, yuqoridagi gipoteza quyidagi taxminlarni ilgari surişini ta'kidlaş lozim: özaro boğliqlik: inson kapitalining sifat jihatidan rivojlanişi ijtimoiy farovonlik, bandlik va hayot sifatining oşişiga yordam beradi; mutanosiblik: inson kapitalining ösişi ijtimoiy imkoniyatlar va munosib bandlik bilan uyğunlaşgandagina kutilgan ijtimoiy natijalarni berişi mumkin.

Örta asr Örta Osiyo mutafakkirlari ham inson va uning içki dunyosi borasida özига xos fikr va yondaşuvga ega bölganlar. Masalan, Abu Rayhon Beruniy "Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularda ilmlarga bölgan talablarni keltirib çiqaradi" [5] degan bölsa, Abu Nasr Forobiy "Insondagi şaxsiylikni vujudga kelişiga, insonni boşqa tirik mavjudotlardan farq qilişiga xizmat qiluvçi, asosiysi kişidagi ma'naviy sifatlarni taraqqiy ettiruvçi omil bu uning aqlidir", – deya ta'kidlaydi [6]. J.Rumiy

esa “Inson (qalb) közlarini oçgan holda hayotning asl mazmun-mohiyatini anglaşi lozim ekanini aytadi.

Inson kapitali - insonning moddiy-ma'naviy, axloqiy, estetik boyliklarining inson tomonidan özlaştirganiik darajasidir. Inson kapitalining ma‘naviyat bilan uyğunligi va ajralmasligi birinçi prezidentimiz I.A.Karimovning Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuç” [7] kitobida yorqin asoslab berilgan.

“Inson kapitali” tuşunçasi özining mazmun doirasiga quyidagilarni qamraydi:

- inson kapitali zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvçi kuçi hisoblanadi;

- inson kapitalini rivojlantiriş davlat jamiyat va şaxsning özidan jiddiy sa’y - harakat va xarajatlar talab etadi;

- inson kapitali bilim, qiziqiş va layoqat sifatida ilmiy zaxira hisoblanadi;

- inson kapitalini rivojiantiriş maqsadida qilinuvçi xarajatiar yaqin emas, uzoq istiqbolda naf keltiradi.

Inson kapitali nazariyasining şakllanişida iqtisodçi olim Teodor Şultsning ilmiy qaraşlari muhim örin tutadi. Uning 1961-yilda çop etilgan “Investment in Human Capital” nomli maqolasida inson kapitaliga investitsiya kiritiş iqtisodiy rivojlaniş va mehnat unumdorligini oşirişning muhim omili sifatida talqin qilinadi. Olim insonning bilim va qobiliyatlarini rivojlantirişga yönaltirilgan xarajatlarni iqtisodiy taraqqiyot bilan boğlaydi [8]. G.Bekkerning “Inson kapitali” kitobi sohaga oid tadqiqotlar uçun asos sanaladi va zamonaviy iqtisodiy fanning boşlanğiç asosi sifatida e’tirof etiladi. “Inson kapitali bu har bir odamdagi bilim, könikma hamda motivatsiyalar yiğindisidir”, – deya ta’kidlaydi G.Bekker.

Gari Bekker inson kapitali nazariyasini yanada rivojlantirib, 1964-yilda naşr etilgan “Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education” asarida ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning inson daromadi, bandligi hamda mehnat unumdorligiga ta’sirini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilgan. Uning yondaşuvi inson kapitalini rivojlantirişni nafaqat individual manfaatlar, balki jamiyatning iqtisodiy salohiyati bilan boğliq jarayon sifatida örganiş imkonini beradi [9].

Mazkur muammoning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini örganişda Amartya Senning qaraşlari alohida ahamiyatga ega. Uning 1999-yilda naşr etilgan “Development as Freedom” asarida taraqqiyot insonlarning erkinliklari va real imkoniyatlarini kengaytiriş jarayoni sifatida izohlanadi. Uşbu yondaşuvga köra, ijtimoiy rivojlanişni faqat iqtisodiy daromad yoki moddiy boylik bilan baholaş yetarli emas; ta’lim oliş, soğlom hayot keçiriş va jamiyat hayotida faol iştirok etiş imkoniyatlari ham muhim mezonlardir [10].

Yuqoridagi ilmiy yondaşuvlarni qiyosiy tahlil qiliş şuni körsatadiki, Şults va Bekker inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning natijalariga köproq e’tibor qaratgan bölsa, Sen taraqqiyotning inson imkoniyatlari va erkinliklarini kengaytiriş bilan boğliq jihatlarini asoslaydi. Uşbu qaraşlarni özaro töldiruvçi nazariy yondaşuvlar sifatida qöllaş inson kapitali va ijtimoiy rivojlaniş örtasidagi mutanosiblikni kengroq tahlil qilişga yordam beradi.

Bugungi dunyodagi sotsiologik nazariyalar inson kapitalini jadal rivojlantiriş davlat va jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni mustahkamlaşi, intelektual va ma’naviy omillarni mamlakatda harakatlantiruvçi kuçga aylantirişi, ya’ni, real voqelikni bir holatdan ikkinçi holatga transformatsiyalaşuviga imkon yaratişi asoslanmoqda. Xususan, inson kapitali hodisasi A.Smit, V.Petti, J.S.Mill, Ye.Yengel, T.Vişteyn, Jan-Batist Say, Jorj Makkalok, Nassau Senior, Valter Roşer, Genri Makleod, Leon Valras, Iogann fon Tunen, Irvin Fişer tomonidan körib çiqilgan [11].

Dastavval, ya’ni, ötgan asrning 50-80 - yillarida AQŞ, Yevropa mamlakatlarida inson kapitalining neoklassik nazariyasi Gari Bekker, Jorj Mintzer, Teodor Şuls, Barton Vaysbrod, B.L.Xansen, M.Blaug, S.Boulz, I.Ben-Poret, R.Layard, J.Psaxaropulos, F. Uelç, B. Çizvik va boşqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Şuningdek, inson kapitali fuqarolarni davlat va jamiyat boşqaruviga integratsiyalaşni kengaytiriş nazariyasi (G.Simon); Inson yuqori salohiyatining taşkilot nufuziga ta’siri (D.Stigler); Korxona va muassasalarda insonning qöşimça qiymatiga daxldorligi va taşkilotning real aktivlari

bilan baholaş nazariyasi(F.Modigliani, M.Miller) va boşqa olimlarning işlarini körsatiş mumkin. Ayniqsa, inson kapitalining boşqa turli jihatlari, xususan, uning ma'naviy, ijtimoiy, intelektual kapital tarzidagi körinişlari T.Styuart, Ye.Bruking, L.Yedvinson, M.Meloun asarlarida oçilib, muayyan işlar amalga oşirilgan [12].

METODOLOGIYA

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Ş.Mirziyoyevning "Yurtimizda yaşayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinç va badavlat umr keçirişi, bugun hayotdan rozi bölib yaşaşi – bizning boş maqsadimizdir", "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun", degan fikrlari Yangi Özbekistondagi inson kapitali taraqqiyotida ilmiy-metodologik asos bölib xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqot inson kapitali va ijtimoiy rivojlaniş örtasidagi özaro boğliqlik hamda ularning mutanosibligini ta'minlovçi omillarni aniqlaşga qaratilgan tizimli va fanlararo yondaşuvga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondaşuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlaştiriş va sabab-oqibat munosabatlarini örganiş tamoyillari taşkil etadi.

Tizimli yondaşuv orqali inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari — ta'lim, salomatlik, kasbiy kompetensiyalar, mehnat salohiyati va ijtimoiy faollikning ijtimoiy rivojlaniş körsatkiçlari bilan özaro aloqasi tahlil qilinadi. Bunda inson kapitali jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tizimlari bilan uzviy boğliq hodisa sifatida qaraladi.

Qiyosiy tahlil metodi inson kapitali va ijtimoiy taraqqiyotga oid turli nazariy yondaşuvlarni, jumladan, inson kapitali nazariyasi hamda inson imkoniyatlarini kengaytirişga asoslangan konsepsiyalarni özaro taqqoslaşda qöllaniladi. Mantiqiy tahlil va umumlaştiriş usullari mavjud ilmiy qaraşlarni tizimlaştiriş, asosiy qonuniyatlarni aniqlaş hamda tadqiqot xulosalarini şakllantirişga xizmat qiladi.

Şunday qilib, tanlangan metodologik yondaşuvlar inson kapitali rivojlanişining ijtimoiy taraqqiyot bilan boğliq jihatlarini kompleks örganiş, mutanosiblikka ta'sir etuvçi omillarni aniqlaş hamda ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar işlab çiqiş imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Mazkur tadqiqot doirasida mutanosiblikni inson kapitalining rivojlaniş darajasi bilan jamiyatning uşbu salohiyatdan foydalaniş imkoniyatlari örtasidagi uyğunlik sifatida izohlaş mumkin. Bunda insonning bilim va malakasi, bir tomondan, ijtimoiy institutlar va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kelişi, ikkinçi tomondan esa, uning şaxsiy rivojlanişi va ijtimoiy farovonligiga xizmat qilişi lozim.

Inson kapitali masalasini tadqiq etişning dolzarbligi quyidagilarda öz ifodasini topadi:

Davlat va jamiyat rivoji barqarorligini ta'minlaş
Iqtisodiy, intellektual va ijtimoiy taraqqiyot barqarorligini ta'minlaş
Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklaş va yuksaltiriş
Ta'lim va tarbiyaning uyğunligini ta'minlaş

Inson kapitali orqali davlat va jamiyat rivoji barqarorligi qanday ta'minlanadi?

Insonlarning mehnat salohiyatini ta'minlaş orqali	Salomatlik holatini yaxşilaş orqali	Intellektual darajasini oşiriş orqali
Taşkilotçilik va tadbirkorlik salohiyatini rivojlanti-riş orqali	Öz-özini, xodimlarni va taşkilotni samarali boşqariş orqali	Madaniy-axloqiy rivojlanganlik darajasini yuksaltiriş orqali

Inson kapitali:

1	informatsiyaga egalik emas, informatsiya-dan foydalaniş
2	potensial salohiyat emas, real salohiyatga egalik
3	bilimni örganiş bilan çeklaniş emas, bilimni boşqalarga örgata oliş
4	boşqaruv kompetensiyalarini biliş emas, boşqaruv kompetensiyalarini qöllay biliş
5	adolat töğrisida xabardorlik emas, adolatni amaliyotga joriy eta bilişni ifoda etadi.

Mutanosiblikning buzilişi bir qator muammolarni yuzaga keltirişi mumkin. Jumladan, ta'lim tizimi bilan mehnat bozori örtasidagi nomuvofiqlik, malakali mutaxassislarning salohiyatidan yetarliça foydalanilmasligi, hududlar va ijtimoiy guruhlar örtasidagi imkoniyatlar tafovuti inson kapitalining ijtimoiy samaradorligini pasaytirişi ehtimoli mavjud. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, mutanosiblik faqat iqtisodiy talab va taklifning muvofiqligi emas. U inson manfaatlari, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va jamiyat oldidagi mas'uliyatning özaro uyğunligini ham anglatadi. Demak, inson kapitalining rivojlanişi insonni faqat işlab çiqariş vositasi sifatida emas, balki mustaqil qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy subyekti sifatida e'tirof etişga tayanişi zarur.

Ayni vaqtda, inson kapitali nazariyasining ijtimoiy boşqaruvning taşkiliy muammolarni hal qiliş va yetuk kadrlarni tanlaşni samarali hal qiliş uçun adolatli yondaşiş, qarorlar qabul qiliş jarayoniga fuqarolarni keng jalb qiliş uçun muvozanatli yondaşuv konsepsiyasini işlab çiqiş, inson salohiyatini yuzaga çiqariş uçun töğridan töğri taşqi va içki investitsiyalar kiritiş darajasini oşiriş, turli muassasalarning inson kapitalini rivojlantirişi mumkin bölgan parametrlarni aniqlaş katta ahamiyatga egadir.

Ana şu masalalar doirasida inson kapitalini taşkilot va muassasalar faoliyati muhitida şakllantirişning ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlaş joizdir.

Hozirgi kunda xodimlarning taşkilot hamda jamiyat taraqqiyotidagi muhim rolini tuşungan holda, aksariyat taşkilotlar inson kapitalini rivojlantirişga katta ahamiyat bera boşladilar. Çunki, inson kapitalining ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiliş mexanizmlarini örganiş korxona va taşkilotlarning joriy va istiqboliy rivojlantiriş imkoniyatlarini kengaytiradi. Fiziologik kapital va inson kapitalining faoliyatidagi nisbati muhim ahamiyat kasb etib, öziga xosliklarini aniqlaş ham muhimdir.

Tadqiqot natijalari asosida taşkilotlarda fiziologik kapital va inson kapitalining nafaqat farqli, balki quyidagi umumiy xususiyatlarini ham aniqlanganligini kuzatişimiz mumkin:

-inson kapitali, xuddi fiziologik kapital kabi zaxirada turadi va zarur xollarda qöşimça intelektual, ma'naviy, ijtimoiy qiymat yaratiş qobiliyatini namoyon qiladi;

-kapitalning har ikkala turi ham özidagi mavjud resursni (moliyaviy, moddiy, bilim, könikma) işga tuşiriş orqali yangi raqobatbardoş mahsulotlar tayyorlaydi;

Har ikki turdagi kapital taşkilotga va ularning egalariga foyda keltiradi.

Taşkilot muhitida inson kapitali va fiziologik kapital örtasidagi farqlar esa quyidagilardan iborat:

- inson kapitalining fiziologik kapitaldan asosiy farqi undan foydalaniş paytida u öz qiymatini yöqotmaydi (jismoniy ammortizatsiya inson kapitaliga öz ta'sirini ötkaza olmaydi). Aksinça, inson kpitalidan qança köp foydalanilsa, uning qiymati şunça oşib boradi.

- inson kapitaliga taşkilot muayyan foyda oliş uçun murojaat qiladi, lekin inson kapitaliga özining mulki sifatida munosabatda böla olmaydi, Çunki, inson kapitali muayyan taşkilotga tegişli bölmaydi. Taşkilotdan böşab ketayotgan xodim özi bilan taşkilotda amal qilib kelgan inson kapitalini ham olib ketadi;

- inson kapitali institutsional yondaşuv şaroitida köproq samara berişi mumkin, çunki bu hodisani institutsional anglaş, uni faol ijtimoiylaştiriş imkonini beradi;

- institutsional yondaşuv taşkilotdagi fiziologik kapitalning ma'naviy eskirişi jarayonlarini ham nazorat qiladi.

Inson kapitalini tizimli tadqiq etiş uni kategorial yondaşib tavsiflaşga, ya'ni, "inson bilimi", "inson salohiyati", "kasbi komillik"," inson kapitalining konsentratsiyasi", "inson kapitalining rentabellik darajasi", "inson kapitalida foydalilik qiymati" kabi tuşunçalar doirasida tadqiq etişga imkon beradi [13].

Muayyan taşkilot şaroitida inson kapitalini rivojlantiriş jarayoni uçta körinişda namoyon böladi. Bular quyidagilar:

-inkorporatsiyalaşgan inson kapitali;

-obyektivlaşgan inson kapitali;

-institutsionallaşgan inson kapitali [14].

Inson kapitalining inkorporatsiyalaşgan holati barqaror tarzda namoyon böluvçi nuqtai – nazarlar, diskursiv yondaşuvlar hamda qobiliyatlar tarzida namoyon böladi.

Obyektivlaştirilgan inson kapitali - bu bilim, könikma va malaka tarzidagi ma'lumotlarni faoliyat subyekti tomonidan teran anglanişi, turli şakllarda talqin etilişi, undagi özgarişlarni bevosita monitoring qilinişi (kuzatilişi) hamda ma'lumotlarni boşqalarga uzatilişi bosqiçlarini öz içiga oladi.

Mazkur tadqiqot doirasida mutanosiblikni inson kapitalining rivojlaniş darajasi bilan jamiyatning uşbu salohiyatdan foydalaniş imkoniyatlari örtasidagi uyğunlik sifatida izohlaş mumkin. Bunda insonning bilim va malakasi, bir tomondan, ijtimoiy institutlar va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kelişi, ikkinçi tomondan esa, uning şaxsiy rivojlanişi va ijtimoiy farovonligiga xizmat qilişi lozim.

Inson kapitalini rivojlantirişda esa mehnatning roli beqiyos ekanligini alohida ta'kidlaş zarurdir. Çunki öz-özini rivojlantirişda har bir şaxsdan samarali mehnat qiliş talab etiladi. Şarqda boşlangan IX-XV-asrlarda yuz bergan buyuk Uyğoniş davri esa diniy e'tiqodning mehnat bilan uyğunlaşuvi, ilm-fan orqali dunyo sir-sinoatlarini biliş harakati Ollohning neçoğli buyukligi va qudratini anglaş bilan boğlanadi. Ollohning buyukligini nafaqat ilm-fan va hunarlar orqali anglaş mumkinligi Bahovuddin Naqişband ta'limotida ayniqsa röyi-rost körinadi. Bahovuddin Naqişband bolaning oiladayoq kasb-hunarga yönaltirilişi zarurligini ta'kidlagan. Uluğ hazratning irodasiga köra, madrasa ta'limi uçun faqat biror bir kasbni puxta egallab olgan yoşlargina qabul qilinganlar. Bahovuddin Naqişband hunarga aylanmagan bilimlar samarasiz, odamlarga va çin e'tiqodga xizmat qilmaydi, deb, hisoblagan. Bunday yondaşuv mohiyatini şunday tuşuntirganlar: "Agar kişi hunarli bölsa, u öz bilimini haqiqatga bağişlaydi, öz mehnati bilan kun keçiradi. Bordiyu kasbi bölmasa bilimini tirikçilikka sarf etadi, halol mehnatni unutadi, ollohni ham odamlarni ham dildan seva olmaydi" [15].

Alişer Navoiy hazratlari mehnat va ijod qilişni qattiq sevganlari va uluğlaganligi bois inson tomonidan bajarilayotgan har qanday kasb va maşğulotlar mahsuli yuksak sifatli bölişi ustida jonkuyarlik qilganlar. Uluğ ustozning ilm-fan va kasb-hunar soxiblariga körsatgan ğamxörliklari haqida "Boburnoma"da şunday deyilgan: "Fazl ahli va hunar axliga Alişerbekçalik murabiy va homiylik qilgan odam dunyoda topilmasa kerak" [16] … Kimki biror iş bilan maaşğul bölsa himmat va maqsadi şu işni kamolga yetkaziş edi [17] … "Alişerbek köp va yaxşi narsalar ixtiro qilgan edi. Mobodo biror kişi qaysidir işda bir yangilik yaratsa u narsaning rivoji va ravnaqi uçun uni "Alişeriy" deb atardilar" [18].

Hazrat Alişer Navoiy mehnatga mehr qöygan odamning dastavval bir sohada yetuklik maqomiga erişuvi ustida ğamxörlik qilgan. Bunday maqsadli harakatni bejiz qilmagan. Çunki zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida inson psixologiyasida röy beradigan qiziq bir holat aniqlangan. Kişi biror-bir sohada yetuklik darajasiga erişib, keng jamoa orasida uning sohada eng birinçiligi etirof etilsa, u endi boşqa sohalarda ham birinçilikni qölga kiritişga tabiiy ravişda intiladi.

Masalan matematika sohasida eng a'loçi sifatida köpçilik tomonidan yakdil e'tirof etilgan öquvçi tabiiy ravişda boşqa fanlar ya'ni fizika, ximiya, tarix va boşqa predmetlar böyiça ham yuksak natijalarga erişişga intiladi. Öquvçi erişgan yuksak natija boşqa yönalişlarga köçadi. Xuddi şunday holatni ilmda ekstropolyativ özgariş deb talqin etiladi. Şu boisdan ham ta'lim jaroyonlari samaradorligining keskin rivojlanişiga kuçli turtki bera oluvçi bunday imkoniyatni qöllab quvvatlaş maqsadga muvofiqdir. Ekstroplyativ hodisalarni qöllaş esa pedagogik jaroyondir. Pedagog tomonidan keng tafakkur yuritiş, tunlarni uyqusiz öylab ötkaziş natijasidadan yuzaga keluvçi bunday mehnatni oqilona taşkil etiş öquvçilar ta'limi, hayoti va faoliyatiga pozitiv ta'sir körsatişi şubhasizdir.

Şu boisdan ham, mamlakatimizda hozirgi paytda amalga oşirilayotgan yangi ta'lim siyosati barça fuqarolarning millati, jinsi, diniy e'tiqodi, kelib çiqişidan qat'iy nazar yoşlikdan hayotga maqsadli tayyorlaş va har bir insonga bepul kasb-hunar, bilimlar beriş orqali uni şaxs darajasiga yuksaltiriş işlari pirovard natijada ta'lim, fan, madaniyat va işlab çiqarişning barça sohalarida misli körilmagan taraqqiyot sur'atlarini yuzaga keltiradi va mamlakatimizni rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib örin olişiga imkoniyat yaratadi.

Dunyoda köpgina sohalarda katta yutuqlarni qölga kiritayotgan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratiş örinlidir. Singapurda inson kapitali omili mamlakatni rivojlantirişning yagona imkoniyati bölganligi heç kimga sir emas. Li Kuan Yu mazkur muammoni yeçiş uçun tört omil kuçiga tayangan:

Birinçi omil mamlakat uçun kafolatli tinçlikni ta'minlaş vazifasi bölib, ikki yaqin qöşni davlat, Xitoy va Malayziya bilan tinç yaşaş va muvozanatli hamjihatlikka erişiş, boşqa mamlakatlar bilan amalga oşiriladigan taşqi siyosatda har qanday konfrontatsiyaga yöl qöymaslik [19].

Ikkinçi omil davlat byudjeteni ta'limga yönaltiriş strategiyasi bölib, bu strategiya maktab öqituvçisini eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga kötarişdan boşlangani böldi [20].

Uçinçi omil millatning intellektual salohiyatini yana ham murakkabroq dovon bölgan ijtimoiy kapital bilan uyğunlaştirişga erişiş strategiyasini özida ifoda etadi [21].

Törtinçi omil esa, millatni intnlletual, texnologik va ijtimoiy özgarişlarga permanent maqomdagi şaylik holatiga tayyorlaş, ya'ni, jamoat işida aktivlikdan proaktivlikka, kasb egaligidan kasbi komillikka, kompyuter foydalanuvçisidan axborot va texnologik dasturlar loyihalovçilik darajasiga transformatsiya bölib yaşaşlarini ekzestensial turmuş tarziga aylantirişdan iborat edi. Li Kuan yu ana şu sönggi omilni 1983-yili Singapur mustaqilligi bayrami kuni şunday bayonot bergan: "Agar oliy ta'limni bitirayotgan yigitlarimiz kelajakda farzandlarini özlari kabi ilğor bölişlarini istaşsa-yu, ma'lumoti va intellektual salohiyati pastroq ayolni rafiqa sifatida tanlaşsa – bu tamoman bema'ni tanlovdir [22]".

Singapurda şu tariqa kuçli intellektual potensial omili bilan mamlakatda mavjud bölmagan iqtisodiy, tabiiy resurslar örnini almaştiriş strategiyasi orqali farovon hayotni barqaror joriy etişga asos solindi. Bu strategiyaning indollosini Li Kuan Yu aynan oiladan boşlaganligi ham bejiz emasdir.

Mazkur yondaşuv naqadar dono bölganligini atoqli amerikalik diplomat Genri Alfred Kissinjer şunday e'tirof etgan: "Yuksak aql-zakovat, intizom va ötkir zehngina resurslar örnini bosa oladi. Li Kuan Yu vatandoşlarini ötmişda ularga yot bölgan vazifalarni bajarişga çaqirdi, avval şaharni tozalaş, sarişta va saranjom qiliş, keyin esa, erişilgan yutuqlar kömagida qöşnilarning öçmas adovatini yengiş va nihoyat oralaridagi etnik kelişmovçiliklarni bartaraf etiş. Bugungi zamonaviy Singapur uning vasiyatidir [23].

Şu narsa e'tiborga loyiqki, Singapur davlatida ham, ijtimoiy jarayonlarga totalitar yondaşuv va kommunistik tazyiqni yengib ötiş asosiy muammolar sifatida namoyon bölib kelgan. Li Kuan Yu özining "Uçinçi dunyodan birinçi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000)" nomli asarida mehnatning ijtimoiy roliga alohida e'tibor qaratgan [24]. Inson kapitali farovonlik sari yölda haqiqiy drayver maqomida bölişi uçun mehnat omili katta ahamiyat kasb etadi. Şu boisdan ham Li Kuan Yu inson, jamiyat, davlatga bölgan munosabatda kommunistik yondaşuv örniga demokratik yondaşuv afzalligini Konfutsiylik, buddizm ta'limotlarida ilgari surilgan halol mehnat qiliş, adolatlilik va bağrikenglik ğoyalari asosida isbotlaşga intilgan.

Zero, buddizm negizidagi diniy ta'limotdagi muqaddas söz bölgan "Karma" sözi ham "halol mehnat qiliş" degan ma'noni anglatadi, ya'ni hayotda amalga oşiriladigan işlar ham Tangriga ibodat, yaxşi solih amal mazmunini ifoda etadi. Mehnat katarsisga yöl oçadi, ya'ni mehnat orqali extiroslar, hissiyotlar, ruxiy zöriqişlardan tozalaniş, xalos böliş imkoniyati kengayadi, deb qayd etiladi.

Mehnatni uluğlovçi, mehnatni sifatli ado etuvçilar haqida uluğ mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ham özining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", va "Hindiston" kitoblarida alohida töxtalgan. Ayniqsa öqituvçi mehnatiga alohida ahamiyat berib, öqituvçi mehnati tolib ongiga uzluksiz ta'sir körsatiş natijasidagina samara berişini, bilim oliş esa faqat takrorlanuvçi mehnat orqaligina amalga oşişini qayd etadi [25].

Islom dinida esa ongli ravişda amalga oşirilgan mehnatning natijalari bölib qölga kiritilgan boylikni birgalikda baxam köriş, extiyojmandlarga kömaklaşiş, sahovatpeşalik eng oliy qadriyatlar sifatida talqin etiladi. XX asr örtalarida Yevropada keng ijtimoiy harakatga aylangan protestantizm oqimi namoyondalari "Mehnat ibodatning ayni özidir", degan şior ostida birlaşdilar. Mehnatning iloxiy hodisa sifatida talqin etilişi odamlarning özlari maşğul bölgan faoliyatlariga ma'suliyat bilan yondaşiş, sifatli iş bajariş, mehnatning ijobiy natijalar, boylik, rizq-röz keltirişiga işonç töyğularini bemisl darajada kuçaytirdi. Şu boisdan ham Ğarb uyğoniş davrida va undan keyingi asrlarda erişilgan jaxonşumul yutuqlarni protestantizm ğoyalari bilan boğlab talqin etilişida kuçli asos bordir.

Zero, "vaziyatlar va daholar voqealar rivojini belgilaydi" mazmunidagi qadimiy rivoyat Sigapurni taraqqiyot yöliga eltgan Li Kuan Yu misolida yaqqol ifodasini topgan bölsa, Yangi Özbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga çiqiş maqsadlari negizidagi bugungi baravj taraqqiyot

sur'atlari va yuksak marralarga sobitqadamlik bilan erişiş yölidagi şiddatli ijtimoiy harakat ham Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning dono siyosati bilan bevosita boğliqdir.

Mamlakatimizda Yangi Özbekistonni barpo etişga yönaltirilgan Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalari ham mohiyat e'tiboriga köra, har tomonlama farovon, yuksak taraqqiyotga erişgan baxtiyor davlat quriş vazifalarini inson kapitalini rivojlantiriş, aholi turli tabaqalari vakillari, xususan, yoşlarda buyuk istiqbolga bölgan işonçni mustahkamlaş, ularda mehnatga bölgan iştiyoq va mehr va ğayratni tarbiyalaşni közda tutadi.

Şu bilan birga, inson kapitalining davlat va jamiyat taraqqiyotidagi harakatlantiruvçi kuç sifatidagi roli neçoğli muhimligiga qaramay, mamlakatimizda uni nazariy va empirik tadqiq etiş holatini qoniqarli, deb bölmaydi.

Holbuki, inson kapitalini milliy yuksalişning boş omili sifatida qabul qiliş Yangi Özbekistonimiz uçun metodologik xususiyatga egadir. Çunki "Yangi Özbekiston – 2030" dasturidagi 100 maqsadning 44 tasi inson salohiyatini yuksaltirişga qaratilgandir. Zero, odamni intelektual va ijtimoiy rivojlantiriş insonning real qobiliyatini röyobga çiqariş orqali amalga oşişi algoritmik qoida va inson resurslarini boşqarişning yangi strategiyasi sifatida namoyon bölmoqda.

Yuqoridagi nazariy qaraşlar tahlili inson kapitali va ijtimoiy rivojlaniş örtasidagi mutanosiblikni ta'minlaş kompleks yondaşuvni talab etişini körsatadi. Inson kapitali nazariyasi ta'lim, bilim va kasbiy malakaning iqtisodiy ahamiyatini oçib bersa, inson imkoniyatlari yondaşuvi uşbu salohiyatning real hayotda röyobga çiqişi, şaxs erkinligi va farovonligi bilan boğliq jihatlarini yoritadi. Şu nuqtayi nazardan, inson kapitali rivojlanişining ijtimoiy natijalarini baholaşda ta'lim va malaka körsatkiçlarini bandlik, salomatlik, ijtimoiy mobillik va hayot sifati bilan birgalikda örganiş lozim. Bunda iqtisodiy ösişning özi ijtimoiy rivojlanişning barça jihatlarini kafolatlamasligi, inson salohiyatidan foydalaniş imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutiladi.

XULOSA

Yuqoridagi nazariy qaraşlar tahlili inson kapitali va ijtimoiy rivojlaniş örtasidagi mutanosiblikni ta'minlaş umumiy yondaşuvni talab etişini körsatadi.

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlaniş uyğunligi inson salohiyatini şakllantiriş hamda samarali foydalaniş va uning natijalarini jamiyat a'zolari uçun keng imkoniyatlarga aylantiriş jarayonlarining özaro mutanosibligi bilan belgilanadi. Uşbu yondaşuv maqolaning asosiy gipotezasini nazariy jihatdan asoslaş va keyingi bosqiçda Özbekiston şaroitidagi empirik ma'lumotlar orqali tekşiriş uçun konseptual asos bölib xizmat qiladi.

Inson kapitalining institutlaştirilgan şakli bilimlarni tarqatiş uçun asos böladigan diplomlar, patentlar, rasmiy sertifikatlar tarzida namoyon böladi. Ta'kidlaş joizki, inson kapitalini institutsional şakllardagi prezentatsiyasi uni yanada kengroq ijtimoiylaştirişga yöl oçadi.

Inson kapitalini taşkilot muhitida yanada samaraliroq namoyon bölişi uçun quyidagi tizim yasovçi elementlarlarga tayaniş maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- taşkilot xodimlarida maqsadlilik omilining ustuvor mavqe kasb etişiga erişiş;
- irodali va aniq maqsadli harakatçanlik;
- ijtimoiylaşiş jarayonining kölami va sifati;
- xodimlarning kamida ikkita yönalişda kasbi komillik, ustun jihat, perfekşin holatiga egalik;
- inson kapitalini rivojlantiriş uçun induktiv, deduktiv va abduktiv tafakkur şakllarida özini töliq namoyon eta oladigan keys metodi asosidagi faoliyatni taşkil etiş.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Mirziyoyev Ş. Asosoiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantiriş [Elektron resurs]. – Toşkent, 2019. – URL: https://president.uz/oz/lists /view/2604 (murojaat sanasi: 18.10.2026).

2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 21.09.2018 yildagi PF – 5544-son "2019-2021-yillarda Özbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantiriş strategiyasini tasdiqlaş

töğrisida". [Elektron resurs]. – Toşkent, 2018. – URL: https://lex.uz/docs/-3913188 (murojaat sanasi: 18.10.2026).

3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 11.09.2023-yildagi PQ – 300-son "Özbekiston – 2030" stretegiyasini 2023-yilda sifatli va öz vaqtida amalga oşiriş çora-tadbirlari töğrisida". [Elektron resurs]. – Toşkent, 2023. – URL: https://www.lex.uz/docs/-6600390?ONDATE=12.09.2023&ONDATE2= 14.12.2023&action=compare (murojaat sanasi: 18.10.2026).

4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF – 60-son "2022-2026 yillarğa möljallangan yangi Özbekistonning taraqqiyot strategiyasi töğrisida". [Elektron resurs]. – Toşkent, 2022. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-5841063 (murojaat sanasi: 18.10.2026).

5. Beruniy Abu Rayhon. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". T.1. 1968. – B.102 - 103.

6. Abu Nasr Forobiy, F 84. "Fozil odamlar şahri". – Toşkent: "Özbekiston milliy ensiklopediytasi" Davlat ilmiy naşriyoti", 2004. – 160 b.

7. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuç", – Toşkent:"Ma'naviyat", 2008.

8. Sçultz T.W. Investment in Human Capital. — The American Economic Review, 1961, 51(1), 1–17.

9. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: National Bureau of Economic Researç, 1964.

10. Sen A. Development as Freedom. — New York: Alfred A. Knopf, 1999.

11. Генри Алфред Киссинжер. "Мировой порядок». – М.: "АСТ", 2018.

12. Сорочайкин А.Н., Слаф В.М. К построению общей теории управления персоналом // Вестник Самарского государственного университета. 2012. № 1. – С. 98-107.

13. Abdurahmonov Q. "Mehnat iqtisodiyoti". – Toşkent: "Mehnat" naşriyoti, 2004.

14. Abdurahmonov Q. "Mehnat iqtisodiyoti". – Toşkent: "Mehnat" naşriyoti, 2004.

15. Bahovuddin Naqşband, Muhammadxojayev A. Naqşbandiya va Xoja Ahror. Duşanbe, 2007.

16. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma", – Toşkent: "Öqituvçi", 2012.

17. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toşkent: "Öqituvçi", 2012.

18. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toşkent: "Öqituvçi", 2012.

19. Li Kuan Yu, "Uçinçi dunyodan birinçi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000)". – Toşkent, 2022.

20. Li Kuan Yu, "Uçinçi dunyodan birinçi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000". – Toşkent, 2022.

21. Li Kuan Yu, "Uçinçi dunyodan birinçi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000)" ". – Toşkent, 2022.

22. Li Kuan Yu, "Uçinçi dunyodan birinçi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000)". – Toşkent, 2022.

23. Li Kuan Yu. "Uçinçi dunyodan birinçi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000)". – Toşkent, 2022.

24. Genri Alfred Kissinjer "Mirovoy poryadok" Moskva, 2018-god: 2018 Izdatelstvo:"AST" livelib.ru:https://www.livelib.ru/author/311189/top-genri-kissindzher.

25. Beruniy Abu Rayhon, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", T.1. 1968. – B.102 - 103.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000